Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319912

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA KO`RSATKICHLAR TIZIMI

dots. ALMURADOV ABDULLA
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrasi dotsenti
ORCID: 0000-0002-9278-832X
almuradov.55@mail.ru
+998998258118
AZIZA ASRAROVA OYBEKOVNA
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Ekonometrika va statistika (08.00.06) yo`nalishi tayanch doktaranti
ORCID: 0009-0001-0654-4282
oybekovnaaziza2111@gmail.com
+998994743360

Annotatsiya Mazkur tezis ishida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlari va ularni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi so'nggi yillarda mamlakatimizda investitsiya muhitini liberallashtirish borasidagi islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni [1] hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi [2] doirasida belgilangan ustuvor vazifalar bilan belgilanadi. Ishda an'anaviy statik ko'rsatkichlardan voz kechgan holda, moliya bozoridagi noaniqlik va risklarni hisobga oluvchi dinamik usullar (NPV, IRR, MIRR) hamda qiymatga yo'naltirilgan EVA modeli tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida investitsiya jozibadorligini oshirishda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash va investorlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari yoritilgan [3]. Tadqiqot natijasida olingan xulosalar investitsiya portfelini optimallashtirish va kiritilayotgan kapitalning YaIM o'sishidagi samaradorligini ekonometrik baholashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so`zlar: Investitsiya siyosati, samaradorlik ko'rsatkichlari, NPV, IRR, EVA, investitsiya faoliyati, huquqiy tartibga solish, xalqaro metodika.

Kirish: Zamonaviy ekonometrik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri - investitsion qarorlarning makro va mikroiqtisodiy darajadagi samaradorligini miqdoriy baholashdir. Global moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik sharoitida investitsiyalarning samaradorligini baholash nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki murakkab ekonometrik modellar tahliliga asoslanishi xususan, kiritilayotgan investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilishda oddiy chiziqli regressiya modellaridan tashqari, vaqtli qatorlar dinamikasini, ularning

Published: 05.06.2026
Cite this article: Almuradov Abdulla, Aziza Asrorova Oybekovna (2026). Investitsiyalar samaradorligini baholashning zamonaviy yondashuvlari va ko`rsatkichlar tizimi. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319912
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

statsionarligini va uzoq muddatli muvozanatli bog'liqliklarini hisobga olish dolzarb iqtisodiy-matematik masala hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya faoliyatini tartibga solvchi yangi tahrirdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun [1] investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish bilan birga, loyihalarni tanlashda ekonometrik prognozlash usullaridan foydalanish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda. Investitsiya samaradorligini baholashda NPV (Sof qiymat) va IRR (Ichki daromad stavkasi) kabi ko'rsatkichlarning ehtimollik modellar bilan bog`liqlik loyiha risklarini aniqroq baholash imkonini beradi [4].

Mazkur tadqiqotning maqsadi — investitsiyalar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimini ekonometrik modellar (masalan, autoregressiv modellar) yordamida takomillashtirish va “O'zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasida belgilangan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga investitsiyalarning ta'sirini baholashdan iborat [1].

Asosiy qism: Investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy tizimi pul oqimlarining vaqt bo'yicha diskontlanishiga va risk darajasining miqdoriy o'lchoviga asoslanadi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, zamonaviy yondashuvda NPV (sof qiymat) loyihaning iqtisodiy qiymatining mutloq o'sishini ifodalaydi:

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I_0$$

bu yerda ,

CF_t - davrdagi sof pul oqimi,

r - diskontlash stavkasi,

I_0 - boshlang'ich investitsiya hajmi.

Ekonometrik nuqtai nazardan r - diskontlash stavkasi o'zgaruvchan bo'lib, u bozor tebranishlari hamda risk uchun talab etiladigan qo`shimcha daromad asosida belgilanadi [5].

Shuningdek, EVA (qo`shilgan qiymat) ko'rsatkichi investitsiyadan olinadigan samarani kapital qiymati bilan qiyoslaydi:

*EVA=NOPAT-(WACC*CAPITAL)*

EVA-qo`shilgan qiymat,NOPAT- soliqqa qadar sof operatsion foyda,WACC-bu kapitalning vaznlangan o`rtacha narxi, CAPITAL-kompaniyaning jami investitisiyalari .Ekonometrik nuqtai nazardan EVA investitsiya loyihasining haqiqiy iqtisodiy rentabelligi filtri hisoblanib, soliqdan keyingi sof operatsion foyda loyihaning sof daromadini va barcha operatsion xarajatlar chegirilgandan keyingi natijani ko'rsatadi.Shuningdek, kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati esa ekonometrik nuqtai nazardan, bu o'zgaruvchi past baholangan daromad darajasi vazifasini o'taydi. U o'z ichiga bozor risklarini,

inflyatsiya kutilmalarini va investorning muqobil imkoniyatlari xarajatlarini qamrab oladi. Investitsiya qilingan kapital esa loyihani amalga oshirish uchun safarbar etilgan barcha moliyaviy va real resurslarning umumiy qiymatihisoblanadi [6].

Investitsiyalar samaradorligini makroiqtisodiy darajada baholash uchun biz ko'p omilli regressiya modelidan foydalanamiz. Investitsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichi sifatida YaIM o'sish sur'ati tanlanib, unga ta'sir etuvchi endogen va ekzogen omillar quyidagi model orqali ifodalanadi:

$$GDP_{growth_t} = \beta_0 + \beta_1 INV_t + \beta_2 EXP_t + \beta_3 EMP_t + u_t$$

Bu yerda,

INV-investitsiyalar hajmi,

EXP-export hajmi,

EMP-ishchi kuchi hajmi, u_t- tasodifiy tebranishlar.

Ushbu modelni baholashda vaqtli qator ma’lumotlaridan foydalanilganligi sababli, birinchi navbatda har bir o'zgaruvchi uchun ADF (Augmented Dickey-Fuller) testi yordamida statsionarlik darajasi tekshiriladi. Agar qatorlar nostatsionar bo'lsa, birinchi tartibli integrallashgan vaqtli qator olinadi. Modeling ishonchliligini ta'minlash uchun Durbin-Watson (DW) testi orqali qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi tekshiriladi [7].

Xalqaro tajriba (misol sifatida keltiradiganda, Jahon banki hisobotlari) shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda investitsiya samaradorligi koeffitsienti β_1 nafaqat kapital hajmiga, balki institutsional sifatga ham bevosita bog'liqdir [8].

Xulosa.

Tadqiqot davomida investitsiyalar samaradorligini baholashning zamonaviy tizimi tahlil qilindi, ilmiy xulosalar shakllantirildi va bunga ko`ra, ko'rsatkichlar tizimining afzalligi natijasida isbotlandiki, NPV va EVA ko'rsatkichlari majmuasi investitsiyaning haqiqiy iqtisodiy rentabelligini ko'rsatib beradi. Xususan, EVA modeli investitsiya qilingan kapitalning muqobil xarajatlarini chegirib tashlashi hisobiga, loyihaning investor uchun haqiqatda daromad keltirayotganligini yoki aksincha, kapital o'zini oqlamayotganini va pulni behuda sarflayotganini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ekonometrik tahlilning ishonchliligida vaqtli qatorlar (2000–2024 yillar) asosida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar hajmi va YaIM o'sishi o'rtasida uzoq muddatli barqaror bog'liqlik mavjud. Ma'lumotlarning ADF testi yordamida birinchi tartibli integrallashgan vaqtli qator darajasida statsionarlikka keltirilishi, olingan regressiya natijalarining determinatsiya koeffitsienti R^2= 0.88 ga teng bo'lishi, o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkichning variatsiyasi 88% holatda modelga kiritilgan ekonometrik omillar ta'sirida shakllanganini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, tanlangan investitsiya

samaradorligi ko'rsatkichlarining iqtisodiy o'sishni tushuntirishda statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2024). Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida. O'RQ-952-son, 30-August. Toshkent: Lex.uz elektron ma'lumotlar bazasi.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida. PF-158-son, 11-September. Toshkent: Adolat nashriyoti.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son, 28-yanvar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

[4] Wooldridge, J. M. (2023). Introductory Econometrics: A Modern Approach. 8th edition. Boston: Cengage Learning, pp. 412-418.

[5] Damodaran, A. (2023). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. 4th edition. Hoboken: Wiley & Sons, pp. 312-315.

[6] Brooks, C. (2022). Introductory Econometrics for Finance. 5th edition. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 85-92.

[7] Wooldridge, J. M. (2023). Introductory Econometrics: A Modern Approach. 8th edition. Boston: Cengage Learning, pp. 620-625.

[8] World Bank. (2024). Investment and Economic Growth: Global Trends and Regional Patterns. Washington, DC: World Bank Publications, pp. 45-47

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —